

**“UMS” MChJ rasmiy saytida  
“Virtual menejer” o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish tizimidan  
foydalanish qoidalari**

“Universal Mobile Systems” MChJ (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) nomidan ish yurituvchi Bosh direktor S.X. Aripov Kompaniya saytida ushbu “Virtual menejer” o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish tizimidan foydalanish qoidalarini (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) joylashtiradi. Ushbu Qoidalarning bandlari avvalroq Kompaniya bilan Mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma (keyingi o‘rinlarda – Shartnoma) tuzgan yuridik shaxslar nomiga ommaviy oferta hisoblanadi.

### **1. Qo‘llanilishi sohasi**

Kompaniya ushbu Qoidalar bo‘yicha <http://www.mobi.uz> (tizimga o‘tish: [vm.mobi.uz](http://vm.mobi.uz)) rasmiy saytida Foydalanuvchiga o‘z hisobvarag‘i va “Virtual menejer” da (keyingi o‘rinlarda – VM) sanab o‘tilgan xizmatlar to‘plamini mustaqil boshqarish maqsadida “Virtual menejer” o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish tizimidan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi, Foydalanuvchi esa ushbu Qoidalarning shartlarini qabul qilib, VM foydalanuvchisi profilining saqlanishi va maxfiyligi uchun javobgar sanaladi hamda Shartnoma doirasida uning shaxsiy hisobvarag‘ida bo‘lgan mablag‘lar hisobiga amaldagi xizmat va tarif rejalarining shartlariga muvofiq VM yordamida ko‘rsatilgan Xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshiradi.

### **2. Ushbu Qoidalarning shartlarini qabul qilish**

2.1. Yuridik shaxsning Kompaniya saytidagi o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish Tizimi orqali Foydalanuvchi sifatida ro‘yxatdan o‘tishi holati (keyingi o‘rinlarda – Ro‘yxatdan o‘tish) ushbu Qoidalarning shartlari to‘liq va so‘zsiz qabul qilinganini anglatadi. Foydalanuvchi Kompaniya bilan bir qatorda ushbu Qoidalarning tomoniga aylanadi.

2.2. Foydalanuvchini VM Tizimida ro‘yxatdan o‘tkazish o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish tizimiga kirish uchun bir martalik kod muvaffaqiyatli kiritilgan vaqtdan yuz beradi. Foydalanuvchi Kompaniya VM Tizimidan foydalanganlik holatini tegishli vaqtdan boshlab ushbu Qoidalarning SHartlari to‘liq va so‘zsiz qabul qilinganligi sifatida baholashini tushunali va bunga rozilik beradi.

2.3. Foydalanuvchi Kompaniyaning ushbu Qoidalarga bir tomonlama tartibda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqini tan oladi. Bu o‘zgartirishlar Foydalanuvchining holatini yomonlashtirgan taqdirda, Kompaniya o‘zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 10 (o‘n) kun oldin tegishli ma‘lumotlarni elektron shaklda Kompaniyaning Internet tarmog‘idagi rasmiy saytida (<http://www.mobi.uz>) joylashtirish orqali Foydalanuvchini xabardor qilishi kerak.

### **3. Maxfiylikka rioya qilish**

3.1. Foydalanuvchi VM tizimiga bir martalik kirish kodining saqlanishi va maxfiyligi hamda ushbu kirish kodidan noqonuniy foydalanganlik sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar uchun to‘liq javobgar hisoblanadi. KOMPANIYA XIZMATLARDAN UCHINCHI SHAXSLAR NOQONUNIY FOYDALANGANLIGI SABABLI YUZAGA KELGAN ZARARLAR UCHUN JAVOGBAR HISOBLANMAYDI VA ULARNI QOPLAB BERMAYDI.

3.2. Foydalanuvchi “Virtual menejer” o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish tizimi bilan ishlashda uchinchi shaxslarning shaxsiga doir ma‘lumotlardan (ismlari, manzillari, telefonlari va h.k.) foydalanganlik uchun mustaqil javobgar hisoblanadi.

### **4. O‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish tizimidan foydalanish**

4.1. Foydalanuvchi Xizmatlardan faqat ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanishi shart.

4.2. Foydalanuvchi VM tizimining veb-interfeysiga har kirishda abonent tomonidan arizada ko‘rsatilgan raqamga SMS orqali bir martalik kirish kodini oladi. Foydalanuvchi qurilmasini sozlashda uning resurslari uchinchi shaxslar tomonidan insofsiz foydalanishiga to‘sqinlik qiladigan, shuningdek bunday foydalanish holatlari aniqlanida tezkor munosabat bildirish imkonini beradigan tegishli choralarni ko‘rishi shart.

4.3. Foydalanuvchi uning identifikatsiya nomi va bir martalik kirish kodini kiritishda amalga oshirilgan VM tizimidagi barcha murojaatlar hamda VM tizimidagi murojaatlar orqali bajarilgan harakatlar uchun to‘liq javobgar hisoblanadi.

4.4. Foydalanuvchi manfiy balans yuzaga kelishi va shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha barcha xizmat ko'rsatish ilovalari o'chib qolishining oldini olish uchun xizmatlarni qo'shishdan avval shaxsiy hisobvaraqlaridagi mablag' qoldig'ini hamda qo'shilishi kerak bo'lgan xizmatlarning umumiy qiymatini taqqoslashi kerak.

4.5. VM tizimi Foydalanuvchisining faoliyati Kompaniyaning uyali ko'chma elektr aloqasi abonentlari hamda O'zbekiston Respublikasi boshqa uyali ko'chma elektr aloqasi operatorlarining abonentlari ishiga halaqit qilmasligi zarur.

4.6. Foydalanuvchining abonentlar shikoyatiga olib keladigan, ushbu Qoidalar shartlarining buzilganini isbotlaydigan har qanday harakatlari taqiqlanadi va ushbu Qoidalar shartlarining buzilishi hisoblanadi.

4.7. Foydalanuvchi VM tizimi xizmatlaridan amaldagi qonunchilikka zid biron-bir harakatlarni sodir etish uchun foydalanmaslik majburiyatini oladi.

4.8. Foydalanuvchi ushbu Qoidalar bilan belgilangan majburiyatlarning har qanday buzilishi, shuningdek bunday qoidabuzarliklarning oqibatlarini (jumladan Kompaniyaga yetkazilishi mumkin bo'lgan har qanday zararlar) uchun javobgar hisoblanadi.

4.9. Foydalanuvchi ushbu Qoidalar shartlariga rioya qiladi va amalda olingan Xizmatlar uchun Kompaniyaga to'lovni amalga oshirishi sharti bilan xizmatni o'chirish uchun ko'zda tutilgan usullar orqali xizmatdan foydalanishdan bosh tortishga haqli.

## 5. VM tizimi xizmatlarini taqdim etish

5.1. Kompaniya muntazam ravishda yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etadi. Foydalanuvchi VM tizimida taqdim etiluvchi Xizmatlarning xususiyati va shakli vaqti-vaqti bilan uni avvaldan ogohlantirmagan holda o'zgarishi mumkinligiga rozilik bildiradi.

5.2. Kompaniya VM tizimidagi Xizmatlardan foydalanish yoki foydalana olmaganlik natijasida Foydalanuvchiga yetkazilgan hamda Kompaniya aybi bilan bo'lmagan xatolar, o'tkazib yuborishlar, ishdagi to'xtalishlar, funksiyalar o'zgarishi, nuqsonlar, kechikishlar va boshqalar natijasida yetkazilgan bevosita yoki bilvosita zarar uchun hech qanday vaziyatda javobgar hisoblanmaydi.

5.3. Foydalanuvchining telefon raqami bloklangan taqdirda, Kompaniya Foydalanuvchining VM tizimiga kirishini to'xtatish huquqiga ega.

## 6. Bitimni bekor qilish

6.1. Ushbu Qoida shartlari tomonlardan biri VM tizimidan foydalanishni to'xtatishga doir istagini bildirgunicha amal qiladi.

6.2. Foydalanuvchi amalda olingan Xizmatlar uchun Kompaniyaga to'lovlarni amalga oshirishi sharti bilan xizmatni o'chirish uchun ko'zda tutilgan usullar yordamida VM tizimidan foydalanishdan bosh tortishga haqli.

6.3. Kompaniya quyidagi holatlarda ogohlantirishsiz Foydalanuvchiga Xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatishi mumkin:

6.3.1. Foydalanuvchi ushbu Qoidalar shartlarini buzganida;

6.3.2. Foydalanuvchi Kompaniya tomonidan asoslangan ravishda ushbu Qoidalar shartlarining buzilishi sifatida e'tirof etilgan harakatlarni amalga oshirganida.

6.4. Ushbu Qoidalar shartlarining buzilishi Foydalanuvchiga tegishli boshqa telefon raqamlari uchun Xizmatlar taqdim etilishida cheklanishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Foydalanuvchi \_\_\_\_\_  
(tashkilot nomi)

"Virtual menejer" xizmatini taqdim etish Qoidalarini bilan tanishdi va ularga rozilik bildiradi.

\_\_\_\_\_  
(rahbarning F.I.Sh, imzo)

\_\_\_\_\_  
(sana)

M.O'.